XALQ DEPUTATLARI JALAQUDUQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-aprel VI-51-31-1-21-K/24 Jalaquduq tumani

Jalaquduq tumanidagi nomi takrorlangan 3 ta mahalla nomlarini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tomonidan berilgan ekspertiza hulosalariga ko‘ra mazkur mahallalarning yangi nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarorini 10-bandida aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish, xududlardagi mahalla ko‘cha nomlarini milliyligimizga mos hamda zamonaviy nomlar bilan atash ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tomonidan berilgan ekspertiza hulosalarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashi

QAROR QILADI

1.Jalaquduq tuman hokimligi qoshidagi Gegrafik ob’ektlarnmi nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 1-mart kungi 01/21-08-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tomonidan berilgan ekspertiza komissiyasining hulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Jalaquduq tuman komissiyasi tomonidan taqdim etilgan geografik ob’ektni qayta nomlash bo‘yicha taklifi yuzasidan Respublika ekspertiza komissiyasining tasdiqlangan hulosasi ma’qullansin.

3.Jalaquduq tuman komissiyasi tomonidan taqdim etilgan geografik ob’ektlarni nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman hokimining o‘rinbosari I.Xudayberdiev, tuman statistika bo‘limi (M.Sotvoldiev) hamda Kadastr agentligi tuman filali (A.Alimov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nomlari o‘zgartirilgan mahalla nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakillantiriish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish hamda nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgiilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish vazifalari topshirilsin.

5.Geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarii o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasi kotibi (A.G‘ulomov), O‘zbekiston Mahalla jamg‘armasi tuman

bo‘limi (S.Urinboev) Navoiy, Guliston, Ittifoq mahallalarining nomlarini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tomonidan berilgan ekspertiza hulosasiga asosan tasdiqlangan yangi nomlarga o‘zgartirish mahalla nomi kritilgan shtamp va muxirlar tayyorlatish ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

6.Ushbu qaror qabul qilinganligi munosabati bilan “Jalaquduq xayoti” gazetasi (Sh.Xaitoxunov) va tuman hokimligi matbuot kotibi tomonidan keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun ijtmoiy tarmoqlarda e’lon qilish vazifasi yuklatilsin.

7.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Xurgonova) va qaror ijrosini ta’minlash geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (I.Xudayberdiev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi LATIPOV XIKMATILLO ABDULXAMIDOVICH

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2024-yil 18-apreldagi
VI-51-31-1-21-K/24 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Amaldagi nomi	Taklif etilayotgan nomlar	Ekspertiza komissiyasinig hulosasi
1.	Guliston MFY	Qo‘shtepa	Qo‘shtepa nomi Ekspertiza komissiyasinig 2024-yil 29-yanvar kungi №05-19-01-107-sonli hulosasiga asaosan tasdiqlangan
		Ko‘kterak	
2.	Ittifoq MFY	Yangi O‘zbekiston	Yangi O‘zbekiston nomi Ekspertiza komissiyasinig 2024-yil 29-yanvar kungi №05-19-01-107-sonli hulosasiga asaosan tasdiqlangan
		Bunyodkor	
3.	Navoiy MFY	Neftchilar	Neftchilar nomi Ekspertiza komissiyasinig 2024-yil 29-yanvar kungi №05-19-01-107-sonli hulosasiga asosan tasdiqlangan
		Qirguli	